



O'ZBEKISTONDA ANDIJON VOQEASI: SABABLAR, OQIBATLAR VA TAHLIL

Abdiraxmatov Quvonchbek, Boxodirov Zohidjon

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat talabasi :

Eshboltayev Bunyod, Boyto'rayev Sirojiddin

Akhmedovdiyorbek7@gmail.com

ANNOTATSIYA: O'zbekistondagi Andijon voqeasi, u bilan bog'liq sabablar, voqealar rivoji va natijalari tahlil qilinadi. 2005-yil 13-mayda Andijon shahrida ro'y bergan mazkur voqea O'zbekiston tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy xavfsizlik, inson huquqlari va ijtimoiy-siyosiy muammolarni o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Voqeaning tarixi, xalq orasidagi noroziliklar, mamlakatdagi siyosiy vaziyat va xorijdagi yondashuvlar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Andijon voqeasi, 2005-yil, Inson huquqlari, Siyosiy norozilik, O'zbekiston tarixi

АБСТРАКТНЫЙ: Анализируется андижанский инцидент в Узбекистане, его причины, развитие событий и результаты. Это событие, состоявшееся 13 мая 2005 года в городе Андижане, имеет большое значение в истории Узбекистана и создает широкие возможности для изучения вопросов национальной безопасности, прав человека, социально-политических вопросов. Приводятся сведения об истории события, общественных протестах, политической ситуации в стране и подходах за рубежом.

Ключевые слова: Андижанский инцидент, 2005, Права человека, Политический протест, История Узбекистана

ABSTRACT: The Andijan incident in Uzbekistan, its causes, developments and results are analyzed. This event, which took place on May 13, 2005 in the city of Andijan, is of great importance in the history of Uzbekistan and creates ample opportunities for studying national security, human rights, and social and political issues. Information about the history of the event, public protests, the political situation in the country, and approaches abroad are provided.





Key words: Andijan incident, 2005, Human rights, Political protest, History of Uzbekistan

Kirish

1. Voqealarning tarixi:

Andijon voqeasi 2005-yil 13-mayda yuz berdi va ushbu voqea O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning natijasi sifatida qaraladi. Voqea, avvalambor, aholi orasidagi iqtisodiy va ijtimoiy adolatsizliklardan, shuningdek, davlatning iqtisodiy siyosatidagi muammolardan kelib chiqdi. Andijon viloyati asosan agrar sohada rivojlangan, ammo iqtisodiy qiyinchiliklar va ishsizlik muammolari fuqarolar orasida norozilikni kuchaytirdi.

2. Sabablar:

Voqeaning asosiy sabablaridan biri – O'zbekiston hukumati tomonidan 1990-yillardan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va inson huquqlariga doir cheklovlardir. Hamma joyda keng tarqalgan poraxo'rlik, ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik va hokimiyatga bo'lgan ishonchsizlik aholi orasida norozilikni kuchaytirdi.

3. Voqealar tarixi:

13-may kuni Andijon shahrida fuqarolar norozilik namoyishlarini o'tkazdilar. Voqealar tezda ommaviy tartibsizliklarga va to'qnashuvlarga olib keldi. Hujumlar va fojialar natijasida ko'plab odamlar halok bo'lishdi. Hozirgi kunda bu voqealar O'zbekiston yoki xalqaro siyosatdagi ko'plab muammolar bilan bog'liq hisoblanadi.

4. Natijalar va oqibatlar:

Andijon voqea natijasida davlat rahbari I.Karimov tomonidan kuchli repressiya va siyosiy ta'qib boshlandi. Xalqaro jamiyat tomonidan bu voqealar qattiq tanqid qilindi, va ko'plab inson huquqlari tashkilotlari O'zbekistondagi inson huquqlarining holatini yomonlashgan deb bilishdi. Shuningdek, Andijon voqeasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlaridagi o'zgarishlarga ham olib keldi.

2005 yilning aprel-may oylarida jinoyat ishlari bo'yicha Andijon viloyati sudida "Akromiyalar" oqimiga a'zo deb topilgan 23 nafar shaxs ustidan sud jarayoni davom etayotgan bir paytda yaqinlarining taqdiridan xavotirdagi yuzlab andijonliklar kunini sud binosi qarshisida o'tkazar edi.

O'zbekiston televideniyesi tomonidan e'lon qilingan maxsus ko'rsatuvda voqealar xronologiyasi quyidagicha keltiriladi:





“Terrorchilar dastlab 12 may soat 23:45 da Andijon shahridagi soqchi-patrul xizmatiga hujum qilishadi. Soqchilik qilayotgan 4 nafar militsiya xodimini o‘ldirib, qurol-yarog‘ omborini buzishadi va o‘nlab avtomatlar, to‘pponcha, granata va boshqa qurollarni qo‘lga kiritishadi. Oradan bir soat o‘tgach, qurollarini ko‘paytirib, saflarini kengaytirib olgan jinoyatchilar to‘dasi Respublika Mudofaa vazirligiga qarashli 34-harbiy qism hududida paydo bo‘ladi. Bu yerda ham jinoyatchilar tomonidan 4-5 soqchi o‘ldirilib, ko‘plab qurol-yarog‘lar o‘g‘irlanadi.

Shundan so‘ng jinoiy to‘da tezkorlik bilan ZIL-130 va bir qator yengil avtomobillarda Andijon shahri yaqinida joylashgan qamoqxona tomon yo‘l oladilar. Qamoqxona eshigini ZIL mashinasi yordamida buzib, ichkariga kirishadi. 600 ga yaqin mahbuslarni, shu jumladan, 23 nafar “Akromiyalar” hamda shu turmada saqlanayotgan o‘ta xavfli retsdivistlarni chiqarib yuborishadi”, deyiladi ko‘rsatuvda.

Ma‘lum qilinishicha, o‘sha paytda ichki ishlar vaziri hisoblangan Zokirjon Almatov birinchi prezident Islom Karimovga telefon qilib, ro‘y bergan hodisalar hamda vaziyat haqida axborot beradi. Islom Karimov o‘tirgan samolyot 13 may kuni soat 7:30 da Andijonga kelib qo‘nadi. Mamlakat rahbari zudlik bilan shtab tashkil etadi.

Hozirda ichki ishlar vaziri Po‘lat Bobojonovga maslahatchilik qilayotgan Zokirjon Almatov Kun.uz'ga bergan intervyusida mustaqil O‘zbekiston tarixidagi eng qonli fojia bo‘lib qolgan Andijon voqealarini shunday xotirlagandi.

“Meni Andijon voqealarida aybdor deb ko‘p gapirishadi. Ha, men o‘shanda shtab boshlig‘i bo‘lganman, qarorni men qabul qilganman, ammo kim o‘shanda Andijonga qurol ko‘tarib keldi? Kim chegaradan qurol bilan o‘tdi? Kim Ichki ishlar vazirligiga qarashli PPSga qurolli hujum qildi, kim harbiy qismga hujum qilib, qurol-yarog‘ oldi?

Kim tergov hibsxonasiga hujum qilib, 500 dan ortiq ashaddiy jinoyatchilarni chiqarib yubordi? Kim hokimiyat binosini egallab, unga o‘t qo‘ydi? Kim yuzga yaqin sud-huquq tizimidagi xodimlarni tutqunda ushlab, ba‘zilarini qatl etdi? Hukumat nima, qarab turishi kerakmidi?

Biz ularga chiqib ketinglar, dedik. Adashmasam, militsiya va prokuratura xodimlaridan 34 nafari halok bo‘lgandi. Tez yordam xodimlari otib tashlangan”, degan sobiq vazir.

Isyonchilar birin-ketin mahalliy ma‘muriy idoralar, xususan, viloyat ichki ishlar boshqarmasi, Milliy xavfsizlik xizmatining viloyat boshqarmasi va viloyat hokimligi binosiga hujum qilishadi. Bu uch obektdan faqatgina viloyat hokimligi binosi ishg‘ol qilinadi.





Rasmiylar isyonchilar bilan muzokara olib borishga harakat qilingani, biroq muzokaralardan hech qanday natija bo‘lmaganini aytishadi. Tushdan so‘ng esa qurollangan isyonchilar va harbiylar o‘rtasida otishma yuzaga keladi.

Rasmiy hisobotlarda yozilishicha, “terrorchilik harakati natijasida 187 kishi halok bo‘lgan, shulardan 60 nafari tinch aholi vakillari, ularning ichida ikki nafar voyaga yetmagan bola va bir ayol bor edi”.

Biroq hodisaga bevosita guvoh bo‘lgan, fojida yaqinlarini yo‘qotganlar qurbonlar va jarohatlanganlarning soni rasmiy ma‘lumotlardagidan ancha ko‘p bo‘lganini aytishadi.

O‘zbekistonning o‘sha paytdagi rahbari Islom Karimov tinch aholini o‘qqa tutish haqida hech qanday topshiriq berilmaganini aytgan. Shuningdek, voqealar markazida turgan Zokirjon Almatov 13 may voqealarida 1000 ga yaqin odam halok bo‘lganini inkor etgan.

“Tinch aholiga o‘q uzilgan deyishadi, yo‘q, 12 soat oldin ularning 600-700 nafar oila-a‘zolarini Qirg‘izistonga chiqarib yuborganmiz. Bular kelayotganda harbiy qismdagi kapitanni otib qo‘yishgan. Keyin oddiy askarlar nima qiladi?

Ikki tomon o‘rtasidagi otishma sabab bitta joyda 100 kishi o‘lgan. Ularning ichida bizning xodimlar ham, terrorchilar ham bo‘lgan. Jami 187 kishi o‘lgan. Allohning oldida rost gapni gapiraman, bu aniq raqamlar”, degan u Kun.uz’ga bergan intervyusida.

O‘sha vaqtdagi mamlakat bosh prokurori Rashidjon Qodirov ham Andijon voqealarida besh yuzdan ziyod tinch aholi vakili qurbon bo‘lgani haqidagi iddaolarni uydirma deb atagandi. Biroq 2020 yilda Qalampir.uz nashriga intervyu bergan O‘zbekiston bosh prokurori o‘rinbosari Svetlana Ortiqova tinch aholi o‘qqa tutilganini tan olgan va buni sodir etganlar jazoga tortilganini ta’kidlagan.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘sha kuni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 31 nafar vakili o‘ldirilgan. Bundan tashqari, umumiy hisobda 287 kishi, jumladan, 91 nafar tinch aholi vakili, huquqni muhofaza qilish organlarining 49 nafar xodimi va 59 nafar harbiy turli darajadagi tan jarohatlari olishgan.

Islom Karimov 14 may kuni tashkil etilgan matbuot anjumani chog‘ida jurnalistlarga isyonchilarning talablarini nima uchun rad etganini quyidagicha izohlagandi:

“Albatta, biz bunday bema’ni talablarga rozi bo‘lolmasdik. Buning sababini tushuntirmoqchiman. Har tomonlama mulohaza yuritib, mazkur hodisa ertaga butun O‘zbekiston bo‘ylab garovga olish, bosqinchilik bilan bog‘liq o‘nlab holatlarga olib kelishi mumkin, degan qarorga keldik. Ertaga ular bolalar bog‘chasi, maktab,





kasalxonani egallashlari, xuddi Chechenistonda bo'lgani kabi yana bir qancha shartlarni qo'yib, O'zbekistonni islom respublikasi deb e'lon qilishni talab etishlari mumkin edi. Bu mutlaqo ehtimoldan uzoq emasdi. Tan oling, dunyodagi hech bir davlat bunday talabga rozi bo'lmasdi", degandi birinchi prezident.

Hodisani tergov qilgan O'zbekiston Bosh prokuraturasi hisobotida Andijon voqealari "O'zbekiston mustaqil siyosati, uning milliy manfaatlarini, konstitutsiyaviy tuzumini ag'darish va islomiy davlat barpo etishga qaratilgan, geosiyosiy manfaatlarga to'liq mos keluvchi puxta o'ylangan va rejalashtirilgan harakat" deya baholangandi.

13 may voqealari unda yaqinlarini yo'qotgan andijonliklar uchun og'ir sinov bo'ldi. Bugun fojia qurbonlarini xotirlar ekanmiz, ularning oxirati obod bo'lishi, O'zbekistonda bu kabi voqealar boshqa sodir bo'lmasligini so'rab duo qilamiz.

Foydalanuvchi adabyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2005). Andijon voqealari: rasmiy hisobotlar. Tashkent: O'zbekiston.
2. Pannier, B. (2005). Andijon: A Shattered Portrait of Uzbekistan. New York: Central Asia-Caucasus Institute.
3. Amnesty International. (2005). "Uzbekistan: Andijon – The consequences of a massacre." London: Amnesty International Publications.
4. Institute for War and Peace Reporting. (2005). Andijon: A Year On. London: IWPR.
5. <https://kun.uz/news/2022/05/14/andijon-voqealariga-17-yil-toldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F05%2F14%2Fandijon-voqealariga-17-yil-toldi>

